

**MAMLAKATIMIZDA AYOLLARGA NISBATAN QILINAYOTGAN  
ZO‘RAVONLIK HARAKATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH UCHUN  
KO‘RILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR.**

**Muxiddinova Aziza Bobomurod qizi**

*Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universitet*

*Xalqaro huquq fakulteti “Yurisprudensiya” yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

*E-mail: [muhiddinovaa298@gmail.com](mailto:muhiddinovaa298@gmail.com).*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ayollarga nisbatan qilinayotgan zo‘ravonliklar turlari va sabablari, bu kabi muommolar jamiyatimizga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligi haqida so‘z boradi. Bundan tashqari bunday jinoiy harakatlarning oldini olish uchun tavsiyalar beriladi. Shuningdek, Respublikamizda bunday muommolarni bartaraf etish uchun qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa chora tadbirlar ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ayol huquqlari, zo‘ravonlik turlari, statistika, gender tenglik, ijtimoiy stereotiplar, ayol huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar, zo‘ravonliklarning asosiy sabablari, iqtisodiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik.*

**Abstract:** *In this article, the types and causes of violence against women are talking about how problems are affected our society. In addition, recommendations are given to prevent such criminal acts. It also examines the laws and other measures being adopted in our Republic to eliminate such problems.*

**Key words:** *Women’s rights, types of violence, statistics, gender equality, social stereotypes, women’s rights laws, main causes of violence, economic violence, psychological violence, physical violence.*

**Аннотация:** *В этой статье рассматриваются виды и причины насилия в отношении женщин, а также то, как подобные проблемы влияют на наше общество. Кроме того, даны рекомендации по предупреждению подобных преступных действий. В нем также рассматриваются законы и другие меры, принимаемые в нашей Республике для устранения подобных проблем.*

**Ключевые слова:** *Права женщин, виды насилия, статистика, гендерное равенство, социальные стереотипы, законы о правах женщин, основные причины насилия, экономическое насилие, психологическое насилие, физическое насилие.*

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik-bu nafaqat ayollarning balki butun bir jamiyatning og‘riqli nuqtasi bo‘lib kelmoqda. Zo‘ravonlikning jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy turlari mavjud bo‘lib, bular har bir jamiyat va har bir davlatning obro‘sigacha putur yetkazib, kelajak avlod uchun juda nojo‘ya ta’sirlar qoldirmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda har uch ayoldan bittasi hayoti davomida zo‘ravonlikning qaysidir turidan zarar ko‘radilar. Bu kabi muommolar nafaqat rivojlangan mamlakatlarda balki o‘zimizning mamlakatimizda ham anchagina. Bunday holatlar ayollarni jamiyat hayotidan chiqarib, ularning qobiliyatlarini to‘liq ko‘rsatishga to‘sqinlik qiladi. Ushbu maqolada ayollarga nisbatan qilinayotgan zo‘ravonliklar turlari va ularning sabablari,

hozirgi kunda bunday holatlarni oldini olish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida so'z boradi.

Ayollarga nisbatan ruhiy zo'ravonlik turlari va sabablari .Ruhiy zo'ravonlikning haqoratlash,kamsitish,qo'rqitish,manipulyatsiya qilish,doimiy ravishda ruhiy jihatdan ezib borish va erkiga qarshi chiqish,tanqid qilish kabi turlari mavjud.Bu kabi illatlar jamiyatimizda bolalarning onadan erta yetim qolib ketishiga va bolalarning ruhiy tushkunlikda,qo'rqqoq va psixologik travmalar bilan voyaga yetishiga sabab bo'ladi.Bu kabi zo'ravonlik jinoyatlari odatda ayolning eri yoki otasi tomonidan sodir etiladi.Bunga misol qilib otaning qizining hohishiga qarshi chiqib erta turmushga berib yuborishi yoki qora mehnatga majbur qilishini,erning o'z ayolini kamsitishi,haqoratlashi,ruhan ezishini aytsak bo'ladi.Achinarlisi shundaki ,bu jinoyatlarning so'ngida ayol kishi joniga qasd qilish darajasigacha boradi.O'zbekchilik deb yoki mentalitet deb oqlanib kelayotgan qo'shtirnoq ichidagi qadriyatlarimiz orqasidan qanchadan qancha ayol-qizlarimiz hayotdan erta ketmoqda.Millatimizda shunday bir ijtimoiy stereotiplar borki ular ayollarni shunday nomaqbul sharoitlarda yashashga majbur bo'lishiga sababdir.Shular sababli ayollarimiz o'z huquqlarini talab qilishga va o'zlari istaganidek tinch hayotda yashashga qo'rqishadi.Statistikalar shuni ko'rsatyaptiki, O'zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida 18ming nafar ayol tazyiqqa uchragan va shulardan 9ming nafari ruhiy zo'ravonlik qurbonlari bo'lishgan.Achinarlisi bu ko'rsatkich 2020-yildan 5ming nafar ko'p miqdor ekanligidir.

Jinsiy zo'ravonlik-bu ayol kishining hohishiga qarshi jinsiy ehtiyojni qondirish bo'lib,ayollarga nisbatan qilinayotgan zo'ravonliklarning eng jirkanch turlaridan biri hisoblanadi.Bu turdagi jinoyat ayollarning jismoniy va ruhiy holatiga jiddiy ta'sir yetkazadi,travmalarga sabab bo'ladi va aksariyat hollarda bu jinoyatning oxiri ham o'z joniga qasd qilish bilan tugaydi.Statistikaning xabar berishicha, O'zbekistonda 2021-yilning (yanvar-mart oylari)holatiga ko'ra ayollarga qilinayotgan zo'ravonliklarning turlari bo'yicha jinsiy zo'ravonlik 0.5%ini tashkil qiladi. Jinsiy zo'ravonlik ko'p hollarda voyaga yetmagan qizlarga nisbatan sodir etiladi.Statistikalarga ko'ra,jinsiy zo'ravonlik bo'yicha Toshkent shahri birinchi o'rinda,Navoiy va Surxondaryo viloyatlari esa undan kegingi o'rinlarda turadi.Mening fikrimcha, chora-tadbirlarni aynan shu jinoyatlarning o'choqlari bo'lgan viloyatlarga qaratish lozim.Va yana shuni aytib o'tishimiz lozimki,ko'p hollarda ayollarimiz o'zlarining huquqlarini bilishmaydi va bu borada biror bir organ yoki tashkilotlarga borib shikoyat qilishlari uchun ularda huquqiy savodxonlik yetarli darajada emas.Hattoki mamlakatimizning chekka-chekka hududlarida ayollarimiz bunday qonunlar borligidan ham xabarlari yo'qligi achinarli hol.Shu sabab,o'ylaymanki,mamlakatimizda huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish,huquqbuzarlik va zo'ravonlik holatlari uchun javobgarlik choralari yanada takomillashtirish lozim.

Jismoniy zo'ravonlik-bu ayol kishini kaltaklash,urish,qo'pol harakatlar sodir etish,har qanday turdagi kuch ishlatishlarni o'z ichiga oladi.Bu turdagi zo'ravonliklar aksariyat hollarda ayolning eri tomonidan sodir etiladi,ba'zi hollarda esa oxiri o'lim bilan tugaydi.O'zbekistonda 2021-yilning 15-apreligacha Ombudsman nomiga xotin-qizlardan



20ga yaqin shikoyat kelib tushgan.Ulardan aksariyati jismoniy va jinsiy zo'rvonlik bo'yicha bo'lgan.Viloyatlar kesimiga olib qarasa ko'proq jinoyatlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keladi.Ammo biz bilamizki,zo'rvonlikni aks ettirgan raqamlar bundan ham ko'p bo'lishi mumkin.Ammo bizning ayollarimiz andisha qilib ko'p hollarda zo'rvonliklarga shunchaki ko'z yumishadi.

Iqtisodiy zo'rvonlik-bu ayollarga nisbatan oilada,ishda va boshqa joylarda amalga oshiriladigan zo'rvonlik shakllaridan biri bo'lib,bu jinoyat xotin-qizlarni mulkka bo'lgan huquqini,oziq-ovqat olish yoki boshqa moddiy qimmatliklar olish huquqini,iqtisodiy munosabatlarga kirishishini,mehnatga oid munosabatlarga kirishish huquqini yoki ta'lim olishga bo'lgan huquqini cheklashda ifodalanadi.Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda,Samarqand viloyati iqtisodiy zo'rvonlik bo'yicha birinchi o'rinda turadi.Undan kegin esa Toshkent,Navoiy,Surxondaryo viloyatlari ham yetakchi o'rinlarda turadi.Bu turdagi jinoyatlar, ayol kishining jamiyatda kamol topishiga to'sqinlik qilish,kelajak avlod tarbiyasi uchun hissa qo'shishiga to'sqinlik qilishga sabab bo'ladi.

Gender tenglik (jinsiy tenglik) bu-oilada va jamiyatda ayollar va erkaklarni teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishidir.O'zbekiston gender tenglik ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan beri qatnashib kelmoqda.Shu yilning o'zida mamlakatimiz ushbu ro'yxatda 189 mamlakat orasidan 62-o'rinni egallagan.Va yana shuni aytib o'tishimiz kerakki,ushbu tamoyil konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan.Shu sababdan ham jamiyatimizning turli xil jabhalarida ayollarimiz o'zining imkoniyatlarini ko'rsatib kelmoqda.Bundan tashqari, 2021-yil 28-mayda "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" tasdiqlandi.Bu islohotni ayollarimizga berilayotgan e'tiborlarning samarasi deya g'urur bilan aytishimiz mumkin.

Ayollarni zo'rvonliklardan himoya qilish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar qatorida himoya orderi alohida o'rin egallaydi. Himoya ordeni-bu zo'rvonlik va tazyiqdan jabrlangan ayollarga hukumat himoyasini taqdim etadigan,ayollarga nisbatan zo'rvonlik harakatlarini sodir etgan shaxsga yoki shaxslarga nisbatan qonun doirasida chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ruxsat beradigan hujjatdir.Bu hujjatning amalga kiritilishi, zo'rvonliklarni oz bo'lsada oldini olish uchun yoki o'lim holatlarini oldini olish uchun hissa qo'shdi deya olamiz.

Bundan tashqari,O'zbekistonda xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilishga doir qonunlar hozirgacha qabul qilinib kelmoqda.

Xususan,prezidentimizning 2021-yil 19-mayda qabul qilingan "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori,"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarni misol qilish mumkin.Bu ma'lumotlardan ayollarga nisbatan zo'rvonliklar jiddiyligini ko'rishimiz mumkin va bu kabi holatlarning oldini olish uchun jamiyatning barcha qatlami birlashib harakat qilishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,bunday jinoyatlar har xil sabablar bilan sodir etilishi mumkin ,masalan,oilada erkakning haddan tashqari ulug'lanishi va ayol jinsiga nisbatan notog'ri munosabatda bo'lishi,ayollarimizning huquqiy savodxonligining

pastligi, huquqiy tizimning sust ishlashi ya'ni jinoyatchilarga qat'iy jazo choralari ko'rilmasligi va oilaviy muhit ham ta'sir qilishi mumkin. Shunday ekan biz bu jinoyatlar jamiyatimizda sodir bo'lmasligi uchun avvalambor sabablarini bartaraf etishimiz kerak. Ayollarga nisbatan jinoyatlar faqatgina ayollarning emas balki butun bir davlatning muommosi hisoblanadi. Shuning uchun men o'ylaymanki bu jinoyatlarning negizida oila tarbiyasi va ta'lim yotadi. Agar biz yaxshilanishni oiladan, tarbiyadan, ta'limdan boshlasak o'ylaymanki biz maqsadimizga erishamamiz. Shundagina biz maqsadimizga erishishimiz mumkin va jamiyatda ayollarni erkaklar bilan teng huquqliligini yanada mustahkamlab, farovon kelajakka kafolat olish mumkin. Har bir ayol xavfsiz va erkaklar bilan teng huquqli yashashga va himoyalashga haqli.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ma'lumotlari: Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida (lex.uz).
2. Gazeta.uz: 2021 yilda ayollarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining 87 foizi oilada sodir etilgan.
3. Qalampir.uz: Oiladagi zo'rvonlik: O'zbekiston dunyoda beshinchi bo'ldi.
4. lex.uz
5. Wikipedia.org
6. oyina.uz

